XALQ DEPUTATLARI KO‘KDALA TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 23 - oktabr VI-13-63-4-224-K/23 Ko‘kdala tuman hokimligi

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman hokimligining Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Ko‘kdala tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.Tuman hokimligining Ko‘kdala tumani mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari (II-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi) hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, fuqarolarning mol-mulk, yer solig‘idan hosil bo‘lgan qarzdorlikni sudlarga da’vo ariza shaklida kiritish xarajatlariga hamda kreditor qarzdorliklarni qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bo‘yicha takliflar **1-ilovaga** muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 22-avgustdagi VI-13-58-4-224-K/23-son qarorining birinchi bandida keltirilgan **1-ilovasiga** o‘zgartirish va qushimchalar kiritilsin hamda qarorning **2-ilovasiga** muofiq ma’qullansin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Do‘stov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Muxammadiyev) bilan birgalikda:

bir hafta muddatda mazkur qarorning **ilovasiga** muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlasin;

“2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar

kiritsin;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

3.Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (X.Ro‘ziev) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4.Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Bektemirov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Do‘stovlar zimmasiga yuklatilsin.

5.Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **X.Djurayev**

Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman
Kengashining
2023-yil 23-oktabrdagi
VI-13-63-4-224-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qushimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

(mln.so‘m)

T/r	Mablag‘ oluvchi tashkilot nomi	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori
1.	Tuman hokimligi	Tumanda fuqarolarning muddati o‘tgan yer, mol-mulk qarzdorligini undirishda sudlarga da’vo ariza shaklida kiritish xarajatlariga. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi 445-son qarori)	87.8
	Jami:		**87.8**

Ajratiladigan mablag‘lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar asosida o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman
Kengashining
2023-yil 23-oktabrdagi
VI-13-63-4-224-K/23-son qaroriga
2-ilova

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qushimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

(Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 22-avgustdagi VI-13-58-4-224-K/23-son qarori **ilovasiga** kiritilgan o‘zgartishdan sung)

(mln.so‘m)

T/r	Mablag‘ oluvchi tashkilot nomi	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori
1.	Tuman hokimligi	“Saxovat va kumak” jamg‘armasiga	200.0
2.	Tuman hokimligi	Foydalanilgan elektr energiyadan hosil bo‘lgan qarzdorligini qoplash xarajatlariga	100.0
3.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Tuman hududini obodonlashtirish va kukalamzorlashtirish xarajatlariga	100.0
4.	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka kumaklashish bo‘limi	Tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari atrofini obodonlashtirish, kukalamzorlashtirish uchun xo‘jalik va qurilish mahsulotlari sotib olish xarajatlariga	60.0
5.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Tashkilot balansidagi generator va texnikalar uchun yonilg‘i moylash maxsulotlari sotib olish xarajatlariga	88.0
6.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Tumanda aholi zich joylashgan hududlardan o‘tuvchi ichki avtomabil yo‘llarida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash uchun maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy-texnik vositalar sotib olish va o‘rnatish xarajatiga (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qarori)	12.0
7.	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi balansiga kompyuter jamlamasi va printer sotib olish xarajatlariga.	30.0
8.	Tuman hokimligi	Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlash zaxira jamg‘armasiga.	100.0
	Jami:		**690.0**

Ajratiladigan mablag‘lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar asosida o‘zgartirish kiritilishi mumkin.